



## BOLALARGA OILADA MEXNAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI MAKTABGA TAYYORLASH.

**D.Q.Asqarova**

*NamDU Maktabgacha*

*ta'lif metodikasi kafedrasи*

*dotsenti*

**Xursanova Rayhona Bahrom qizi,**

*NamDU Maktabgacha ta'lif*

*yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matabga tayyorlashda bolalarda mexnat malakalari, mexnat qilish odatini shakllantirish xar bir ishni oxiriga yetkazish ko'nikmasini tarbiyalash ishning muhim ekanligi, ularni mexnatga o'rgatish, mexnat obyektlari bilan yaqindan tanishtirib borish, ularni o'rghanish kerakligi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** mexnat, kuzatuvchanlik, tabiat, bilimlar tizimi, "Ilm fan va tabiat" markazi, o'ziga o'zi xizmat, ko'rsatish mexnati, xo'jalik turmush mexnati, tabiatdagi mexnat, qo'l mexnat.

Bolajonlar hayotimiz mazmuni, orzu-umidlar timsoli. Chunki ular tug'ilishi bilan orzu-umidlar uyg'onadi, bu hissiyotlar ular bilan ulg'ayadi. Aynan shuning uchun ham kichkintoylar eng aziz tuyg'ularimiz, barcha harakatlarimiz, intilishlarimiz markazida yashaydi. Xayotimizdagi eng yorug' kunlarimiz, o'zimiz erishmagan yuksak cho'qqilar timsolida ularni ko'ramiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2016yil 29dekabrdagi "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi qarori murg'ak qalb egalarining ertamizning munosib davomchilari bo'lib kamolga yetishida alovida ahamiyat kasb etishi shubxasiz. Prezidentimizning yuqoridagi qarorida xam maktabgacha ta'lif muassasalarida zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, malakali pedagoglarni tayyorlash bo'yicha, kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Zero, ta'lif-tarbiyani izchil rivojlantirish ona-vatanga sadoqatli, bilimli, chinakam komil insonlarni voyaga yetkazishning, asosiy shartidir. 5-6 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo'r qiziqishi biror mexnat jarayonini kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatları kichik matab yoshidagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan, e'tiborlari xamda maqsadga qaratilgandi. Xar





kuni kun tartibida guruxdagi barcha bolalar uchun va xar bir bola uchun yakka mehnatni nazarda tutish kerak. Bolalar to'g'ri tashkil etilgan mehnatdan katta quvonch his qiladilar.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning kun tartibida o'z o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati sezilarli o'rinni egallaydi. Tarbiyachilar mustaqil yuvinish, kiyinish ko'nikmasini shakllantirishni davom ettiradilar. Ular bolalardan yuvinish, yechinish, ovqatlanish tartibini aniq bilishni ularni o'z vaqtida va aniq bajarilishlarini talab qiladilar. Tarbiyachi bu shakllangan ko'nikmalardan bolalarning o'zaro yordamlarini tashkil etish va axloqiy normalarni tarbiyalashda foydalaniladi.

O'z o'ziga xizmatni yaxshi tashkil etish shartlaridan biri kun tartibi jarayonini izchil va bosqichma-bosqich o'tkazish va bunda barcha bolalarning ishtirok etishida, bolalar o'zlariga qo'yilayotgan talablarni tushunishlari va o'z burchini muntazam tarzda bajarishlari kerak.

Katta va tayyorlov guruxida muhim vazifa nonushtagacha tayyorlanish, nonushtadan so'ng shuningdek tushlik va kech tushki ovqatga tayyorlanish vaqtida navbatchilar ishini aniq tashkil etishdan iborat. Navbatchilik qilish ko'nikmasini shakllantirish ishi davom ettiriladi, chunki navbatchilikning vazifalari kengayib boradi. Navbatchilikni tayinlashda bu ishda tajribaga ega bo'lganlar qatori yangi bolalarni tayinlash xam e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Yil boshida tarbiyachi navbatchilarni o'z vazifalari bilan tanishtiradi, zaruriyat bo'lganda ayrim xarakatlarni ko'rsatadi. Topshirilgan ish uchun jamoa oldidagi ma'suliyatini ta'kidlaydi (o'z vaqtida kelish. xarakatlar izchilligi, xamma narsani bolalar to'planishiga tayyorlash, asbob anjomlardan to'g'ri foydalanish shu kabilar).

Shuningdek navbatchilar mashg'ulotga kerakli asbob anjomlarni o'quv materiallarini mashg'ulot o'tish uchun tayyorlab qo'yishlari kerak. Bola mustaqil mashg'ulotga tayyorlana turib mashg'ulotga kerakli bo'lgan qalam, idishda suv, latta va mo'y qalam tayyorlashi mashg'ulot tugashi bilan ularni joy joyiga qo'yib ish o'rnini tozalab olishi, qurish-yasash o'yinini o'ynab bo'lgandan so'ng ularni detallaridan ajratib olib idishga solish va o'z o'rniga olib borib qo'yish, tarbiyachi bolalar mexnat qilayotganlarida ularni batartibligi yoki extiyotkorligini tartibsizlikka e'tibor berayaptilarmi, yoki befarq qilayaptilarmi, shularni xammasini diqqat bilan kuzatib boradi.

Tabiatdagi mehnat maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Mexnat jarayonida bolalar o'simliklar xolati, ularni yorug'likka, namlikka, issiqlikka yaxshi tuproqqa bo'lgan extiyojlarini qondirilishiga bog'lik ekanligini anglab oladilar.





Tabiatdagi mexnat kuzatuvchanlikni o'stirilishining usullaridan biridir. Tabiatdagi mexnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta'limiy vazifalar ham xal qilinadi. Tabiat burchagida bo'ladijan navbatchilik ertalab baliqchalarini boqadilar, gullarga suv quyadilar, yerlarni yumshatadilar, qushlar qafaslarini tozalashda yordam beradilar. Vaqtiga vaqtida ko'chat o'tqazishda ham yordam beradilar.

Tarbiyachi va bolalar navbatchilar ishini nazorat qiladilar, hamda uni baxolaydilar.

Mehnat vazifalarini uyushtirishda tashabbus va mustaqillikni namoyon qilganlarni rag'batlantiriladi. Tayyorlov guruxida tarbiyachi bolalar mehnatini tashkil etishning yana bir ko'rinishi xamkorlikdagi mehnatdan foydalaniladi. Bu xolatda bolalardan bittasi ishining oz qismini bajaradi, ikkinchisi uni davom ettiradi.

Qo'l mexnati ko'pincha mashg'ulotlarga barcha bolalar uchun bir vaqtida ulashiladi. O'yinchoqlar qog'oz, tabiiy materiallarni bolalar butun gurux bo'lib yoki kichik guruxlarga bo'linib bajaradilar. Bu maqsadda alovida joy jihozlanib u yerga material va asboblar joylashtiriladi. Qo'l mexnatini bajarishda bola natijaga erishadigan narsa bu buyum vujudga keladi bolalar yopishtirish, bo'yash, tikish, qirqish va shunga o'xshash oddiy mexnat malaka ko'nikmalarini egallab oladilar. Yilning issiq vaqtlardagi sayrlarda yerni chopish va yumshatish, o'toq qilish xosilni yig'ishtirish bo'yicha birgalikdagi ish tashkil etiladi. Bu xolatda mexnatni tashkil etishning asosiy shakli gurux yoki kichik jamoa bo'lib bajariladigan davomli topshiriqlar bo'ladi.

Shunga qarab bolalarning mexnat tarbiyasi vazifalari belgilanadi va ular quyidagilardan iboratdir.

1. Bolalarni bo'lajak mexnat faoliyati oldidan maqsad quyishga o'rgatish.
2. Mexnat jarayonini mexnat faoliyatini eng oddiy rejalab olishga o'rgatish.
3. O'z ish joyini tayyorlab olishga o'rgatish.
4. Mexnat malaka va ko'nikmalarini o'rgatish.
5. Bajarilgan mexnatning natijasi, sifati va axamiyati qancha vaqt bajarilganligiga qarab o'zining va boshqalarning ishini to'g'ri baxolashga o'rgatish.
6. Mexnat faoliyati sabablarini shakllantirish.
7. Jamoa mexnat faoliyatini vaqtida bolalarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish.



Bolalarda mexnat malakalari mexnat qilish odatini shakllantirish xar bir ishni oxiriga yetkazish ko'nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonini to'g'ri tashkil etishda quyidagi qoidalarga rioya qilishni tavsiya etishimiz mumkin.

Katta guruxlarga o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish mexnati xo'jalik turmush mexnati tabiatdagi mexnat, shuningdek qo'l mexnatinini tashkil etish.

Kun tartibiga ko'ra «Bolalar bohchasi ta'lif tarbiya dasturi» asosida mexnat uchun nazarda tutilgan vaqtdan to'liq foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish. Mexnatning xar xil turlari tashkil etilar ekan bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish. Bolalar mexnatiga raxbarlik metod va usullarini ta'lif tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash. Xilma xil mexnat turlarini tashkil etishda ularning bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona biriktirish orqaligina amalga oshirish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Djanpeisova G.E., Rasulxo'jaeva Tabiat bilan tanishtirish. T.; Innovatsiya Ziyo, 2020.- 320 b.
2. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013.
3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO 'G 'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Musaev A. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Musaev A. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.



- 
8. 8. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
  9. 9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
  10. 10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 7.
  11. 11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
  12. 12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.
  13. 13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 268-270.
  14. 14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.
  15. 15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
  - 16.
  - 17.

